



4K TAMOYILI ASOSIDA INGLIZ TILIDAN O‘QUVCHILARNING KOLLOBORATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PARADIGMASI

Kurbanbayev I.

QDU Tarjima nazariyasi va a’maliyoti kafedrasida assistenti

Tayanch so‘zlar: 4K, kolloborativ, krtitik fikirlash, kooperativ, ko’nikma, real hayotda qo‘llash, suruvchi konstruktivizm, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: 4K, коллаборационизм, критическое мышление, сотрудничество, навык, применение в реальной жизни, движущий конструктивизм, критический.

Key words: 4C’s, collaborative, critical thinking, cooperative, skill, real-life application, driving constructivism, critical.

XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg’or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda «4K»ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. [24;1] Tadqiqotchi R.M.Karneyro, D.D.Xekmanlar 4K modeli ko‘nikmalarining turli sohalar va fanlarda ularning muhimligini ta’kidlaydigan dalillar soni ortib borishini [2;3] bu ko‘nikmalar, xatti-harakatlar va shaxsiy fazilatlar; bu odamlarga o‘z muhitida yaxshi harakat qilishlariga yordam beradi boshqalar bilan til topishing, qattiq mehnat qiling va maqsadlaringizga erishiga yordam berishi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan [7;21].

Ta’limda aniq maqsad qo‘yish va o‘zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy tekshirish uchun Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. J.Vakkerning ta’kidlashicha, o‘rganilgan bilimlarni real hayotda qo‘llash uchun nazariyalarni o‘rganish juda muhim hisoblanadi [16;385] Chet til o‘qitish metodikasi lingvistik va tilni o‘qitish nuqtai nazaridan “ta’lim (learning)” nazariyalariga asoslangan holda olib boriladi. Ushbu nazariyalarni chuqur

o'rganish, xorijiy tilni an'anaviy va onlayn o'rganish jarayoni qanday sodir bo'lishini anglash imkonini beradi. Mazkur nazariya prinsiplari xorijiy tilni o'qitishni ta'minlashdagi strategiya va texnikalarni tanlashda qo'llanma sifatida ishlatiladi. Bunday nazariyalardan biri chet tilni mustaqil o'rganish g'oyasini ilgari suruvchi konstruktivizm nazariyasidir. Ushbu nazariya shaxsga yo'naltirilgan metodlarga asos bo'lib xizmat qiladi va uning eng muhim xususiyati shundaki, konstruktivizm nazariyasi asosida xorijiy til o'qitilganda ta'lim jarayonida o'qituvchining roli hamma savollarga javob beruvchi bilim manbai emas, balki yo'l ko'rsatuvchilik bilan chegaralanadi [6;280].

4K tushunchasi — ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muloqot — har qanday sohada muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradigan to'rtta ko'nikma 1950-yillarda Aqshda paydo bo'lgan. U qurolli kuchlar uchun kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan mutaxassislar tomonidan ixtiro qilingan. Ular yuqori natijalarga yerishish uchun talabalar uchun mexanizmlarni mukammal boshqarish va mehnatevarlik ko'nikmalarining asosiy ko'nikmalarini rivojlantirish yetarli yemasligini angladilar. Hamkasblar va mijozlar bilan muloqot qilish qobiliyati ham bir xil darajada muhimdir. Terminlardan kelib chiqqan holda ushbu kontsepsiya 1960-yillarda to'liq shakllangan.

4K model -bu har qanday faoliyatda foydali bo'ladigan insonning shaxsiy fazilatlaridir. Xususan, 4K nazariyasi birinchi marta 1950-yillarda Aqshda ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir inson maktabda, ishda va hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun bunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Agar ushbu ko'nikmalar har bir maktab bitiruvchisida bo'lmasa muvaffaqiyatli bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu masalada 4K ko'nikma (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya) lar insonning xayotiy muommolarini hal qilishga imkon beradi. [20;15] 4K modelida tanqidiy fikrlash shakl sifatida ratsional fikrlash tartib keltiradi va irratsional, tuzilmagan fikrlash betartibligiga uyg'unlik» ekanligi Sorina G.V. [21;253] tomonidan ham o'rganilgan.

4K modelidagi Kollaboratsiya “Hamkorlikda ishlash” ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) –bu o'quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan biri bo'lib, juftlik yoki guruhli ta'limdan foydalangan holda tilni hamkorlikda o'rganishga urg'u beradi. “Hamkorlikda ishlash” ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) ilk marta pedagogika sohasiga J. Lankaster va A.Bell tomonidan XvIII asrda kiritilgan bo'lib, ular Angliyada mazkur metod asosida dars o'tiladigan maktabochishadi [19;643]. Keyinchalik esa “hamkorlikda ishlash” ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) boshqa olimlar tomonidan kengroq o'rganildi. Jumladan, J.Devi ta'lim



dinamik jarayon bo‘lib, nafaqat fanga doir bilimlar berilibgina qolmasdan, o‘zaro interaksiya davomida olingan fikr-mulohazalar asosida o‘quvchilarning muloqot malakasini rivojlantirish lozimligini ta’kidlaydi. [15;55] Mazkur yondashuv tarafdorlari R.Olsen va S.Kagan «Hamkorlikda ishlash ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu guruhli o‘quv faoliyati bo‘lib, guruhlardagi o‘quvchilar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi bilan olib boriladi», deb ta’rif bergan bo‘lsa [10;8] R.Slavin esa tilni hamkorlikda o‘rganish – bu o‘quvchilar kichik guruhda muammolarni ijtimoiy hal qilish uchun birgalikda ishlashidir deb ta’kidlaydi [14;194]

“Hamkorlikda ishlash” ta’lim texnologiyasi (Cooperative learning) ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asoschisi L.Vygotskiyning proksimal rivojlanish maydonidagi ichki tor doiradan chiqib, boshqa bilimlroq bilan o‘rtadagi doira topshiriqlarini bajarish va buning natijasida tashqaridagi ijtimoiylashuv jarayonisiz o‘zi yolg‘iz bajara olmaydigan maydondagi bilimni egallashiga turtki bo‘ladi.

G.I.Shukina ta’limda faollikni ta’minlashni o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni tashkil etgan holda amalga oshirish mumkin deb hisoblaydi [22;37].

M.Garsiyaning fikriga ko‘ra ushbu yondashuvning ijobiy taraflaridan biri – talabalar birgalikda ishlayotganda, ular o‘z sheriklaridan o‘rganish bilan birga, do‘stlari bilan birgalikda ishlashdan zavqlanadi


“Hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, talabalar pedagogik jihatdan tuzilgan mashg‘ulotlarni bajarish davomida chet tilni o‘rganishning muhim sharti hisoblangan ijtimoiylashuv jarayoni sodir bo‘ladi. Ushbu yondashuv ustida ilmiy ishlarini olib borgan olimlar S.Kagan va S.Viderxoldlar ta’lim oluvchilarning kommunikativ aloqada til bilimlarini yaxshilash bilan birga, birgalikda til o‘rganish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi hamda, tanqidiy fikrlashni nutq faoliyati turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv bilan uzviy bog‘lab o‘rgatish kerak deb ta’kidlaydi.

S.videxold tanqidiy fikrlashni “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasiga qo‘shish uchun savollar matrisasini ishlab chiqdi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarni savollarga tanqidiy javob berishga undaydigan “WH” ya’ni “What, Who, Why, Where” kabi savollari to‘plamidir.

Ko‘plab tadqiqotchilar “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta’lim texnologiyasidan an’anaviy ta’limda samarali foydalanish uchun e’tibor berilishi lozim bo‘lgan elementlarni tadqiq etgan. Jumladan, D.v.Jonson, R.T.Jonson, I.J.Xolubek va P.Roylarning fikriga ko‘ra, “hamkorlikda ishlash”



(Cooperative learning) ta'lim texnologiyasida talabalarning muhokama qilishi, boshqa talabalarga yordam berishi yoki bir-birlari bilan o'zaro material almashishi muhim ahamiyatga ega bo'lsada, chinakam hamkorlikda bilim olishlari uchun quyidagi to'rtta asosiy element bo'lishi kerakligini qo'yidagicha ta'kildagan. (-rasm)



D.V.Jonson va hamkasblarining taklif qilgan

“hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining asosiy elementlari ma'lum bir fan doirasida chegaralanmagan bo'lib, umumiy jihatdan ta'lim jarayonida o'quvchilarning sinfxonada hamkorlikda muvafaqqiyatli ishlashlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ta'kidlashicha, o'zaro ijobiy munosabat “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining yuragi hisoblanadi [3;14].

Bizning tadqiqotimiz bo'yicha qaralganda, A1 darajali o'quvchilarni ingliz tilini 4K modeli asosida o'qitishga qaratilib, bu jarayonda tadqiqotchi D.v.Jonson va hamkasblarining taklif qilgan “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining ijobiy o'zaro munosabat va yuzma-yuz muloqot elementlarini ingliz tilini o'qitishda konstruktivizm nazariyasiga asoslanib, shaxsga yo'naltirilgan komponentiga asoslangan holda asosiy tarkibiy qism sifatida kiritish mumkin.

J.Rote va B.Oganlar ham umumiy ma'noda muvafaqqiyatli “hamkorlikda ishlash” (ta'lim texnologiyasini tashkil etishning yetti komponentini taklif qiladi. (rasm)

Ushbu olimlarning taklif etgan tarkibiy elementlari 4K modelidagi kolloboratsiya kompetentsiyasini, o'quvchilarda shakllantirish, hamda ingliz tilini o'qitish maqsadidan yiroqlashmaslik lozimligini inobatga olib, A1 darajali o'quvchilarni ingliz tilini o'qitishga tatbiq etish tadqiqot ishimiz maqsadini amalga oshirishga, faqatgina Guruhning o'zini o'zi baholashi o'quvchilarni ingliz tilini samarali o'qitishda yetarli natija bera olmaydi. O'quvchilar nafaqat o'zlarining ishini balki, guruhdoshlarining ham ishlarini baholashini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



bir a'zoning muvaffaqiyati muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunsalar, guruh a'zolari orasida ijobiy o'zaro munosabat shakllanadi. Natijada, guruh a'zolari vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerakligini tushunib yetadilar. Guruh a'zolari topshiriqni bajarish davomida o'z vazifasini tushunib bajarishsa shu bilan birgalikda guruh muvaffaqiyati uchun boshqa guruh a'zolariga yordam bera olishsa bu o'zaro ijobiy munosabatni anglatishi, shaxsiy javobgarlikni o'zaro ijobiy munosabatning ajralmas bir qismi ekanligidan dalolat beradi. Agar o'quvchilar topshiriqni bajarishda guruh a'zolarini ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilishsa, individual javobgarlik bir vaqtning o'zida avtomatik tarzda sodir bo'ladi.

Ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning bir-birini o'zaro baholashi muhimligi va bu hamkorlikda ishlashni talab etishi keyingi asosiy element sifatida "tengdoshni tengdosh baholashi"ni taklif qilishimizga sabab bo'ladi.


4K modelining tarkibiy qismi kollektiv ko'nikma orqali tengdoshni tengdosh baholashi guruhga o'z xatolarini bilish va ularni o'qituvchiga topshirishdan oldin xatolarni tuzatish imkoniyatin beradi. Bizningcha, tengdoshni tengdosh baholashi qo'yidagi bosqichlarda olib borishni tashkil etish mumkin. (1-jadval)

Birinchisi bosqich muayyan guruhdagi o'quvchilar o'zaro bir-birlarining ishlarini baholash, bunda bir guruh tarkibidagi o'quvchilar bir-birlarini ishlarini baholaydilar. Bir-birining ishini ko'rib chiqib, qoniqarli natijalarga erishgandan so'ng, ularning ishlari ikkinchi usul yordamida baholanishi mumkin

Ikkinchi bosqich bir guruh vakillari boshqa guruh vakillari ishlarini baholashini nazarda tutiladi. Bu orqali o'quvchilar boshqa guruh vakillarining ishlarini ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi va baholash jarayonida ular tengdoshlarining ishlarini o'zlar bilan taqqoslashi va hamkorlikda ishlab, xatolarini va kamchiliklarini aniqlashi mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar bir-birlaridan o'rganib, ingliz tilini mustaqil egallashga intiladi.

So'ngi bosqich o'zaro baholashdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning ishini tekshiradi. O'zaro tekshirishdan o'tgan ishlardan xatosiz natijalar olinishi kutiladi, chunki bitta ish uch marta tekshiriladi: o'z-o'zini tekshirish (bir guruh a'zolari), tengdoshlar (boshqa guruh vakillari) va o'qituvchi tomonidan baholash.

Tadqiqotchi M.Nelson ham o'zaro baholashni qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchidan va boshqa guruhlardan olingan fikr-mulohazalarga tayanib muntazam ravishda formativ baholashni kiritish kerakligini ta'kidlaydi [8;267]. Tengdoshi yoki o'qituvchi tomonidan baholanishi har bir guruh a'zosining vazifasini, ularning topshiriqni bajarish uchun qo'shgan hissasini aniq bilishni yoki qatnashmaganliklari uchun jazolashni ta'minlab beradi. Tengdoshni tengdosh baholashda qiyinchilikka uchramasligi uchun mavjud S.Raxmidjati va hamkasblari tomonidan o'quvchilarning gapirish malakasini baholash uchun



ishlab chiqilgan baholash mezonni takomillashtirilib, yangi “tendoshning fikr-mulohazasi” bo‘limi qo‘shilgan holda quyidagicha o‘zgartirish kiritdik:

O‘quvchilar bir-birlarini aniq mezon asosida baholashi;

o‘z fikr-mulohazalarini yozishi uchun alohida ustun kiritilganligi ulardan qo‘yilgan ballni asoslab

berishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilardan diqqat bilan tekshirish uchun bor bilim mahoratini ishga solishi va yuqori kognitiv fikrlash darajasi sifatida keltirilgan analiz va sintez qilishni talab etadi.

4K modeli tarkibidagi kolloborativ tamoyil ingliz tilidan og‘zaki nutqni quyidagi beshta mezon asosida tekshirilish talab etiladi. (Rasm)

- 1) aniq va tushunarli nutq so‘zlash;
- 2) grammatik tuzilmalardan oqilona foydalanish va grammatik xatolar;
- 3) so‘z boyligining yetarliligi va so‘zlarni kontekstga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olishi;

4) ravon nutq so‘zlay olish va to‘g‘ri talaffuz qila olishi;

5) berilgan vaqt ichida fikrni to‘liq bayon etish va o‘ziga ishonch bilan nutq so‘zlashga qaratilishi inobatka olinadi. Ushbu mezonlarning har biriga maksimal uch balldan ajratilgan va har bir baholash mezoniga qay holatda bir, uch, to‘rt, besh qo‘yilishi batafsil tavsiflangan bo‘lib, umumiy hisobda talaba maksimal 25 ball olishi mumkin. O‘quvchilarga mazkur baholash mezonni taqdim etilishidan oldin albatta o‘qituvchi tomonidan batafsil tushuntirish berilishi, mezonlar va qay holatda uch, to‘rt, besh ball qo‘yilishining tavsifi batafsil izohlanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Garcia M. Ten important aspects of a 21st century foreign language teaching approach. // European Journal of Foreign Language Teaching. – 2021. – Vol 5 (5). – P. 1-19. doi: 10.46827/ejfl.v5i5.3834
2. Heckman, J. J., & Kautz, T. (2013). Fostering and measuring skills: Interventions that improve character and cognition (No. w19656). National Bureau of Economic Research.
3. Johnson D.W., Johnson R.T., Holubec I.J., Roy P. Circles of learning. Cooperation in the Classroom. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development. – 1984. – 14 p.
4. Kagan S., High J. Kagan structures for English language learners // ESL Magazine. The information source for ESL/EFL professional worldwide. – 2002. – P. 10.



5. Kagan, S. Cooperative Learning. San Juan Capistrano, Calif.: Kagan Cooperative Learning. – 1992. – 450 p
6. Kao Y. Vygotsky's theory of instruction and assessment: the implications on foreign language education. Dissertation. USA. – 2014. – 280 p.
7. Lippman, L.H., Ryberg, R., Carney, R. and Moore, K.A. (2015). Key "Soft Skills" that Foster Youth Workforce Success: Toward a Consensus Across Fields. Washington, DC: USAID, FHI 360, Child Trends. Published through the Workforce Connections project managed by FHI 360 and funded by USAID.
8. Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.
9. Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.
10. Olsen R., Kagan S. About cooperative learning // In Kessler C. Cooperative Language Learning: A Teacher's Resource Book. New York: Prentice Hall. – 1992. – P. 8.
11. Ormrod J.E. Educational psychology: Principles and applications. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. – 1995. – 662 p.
12. Rachmijati C., Anggraeni A., Apriliyanti D. Implementation of blended learning through youtube media to improve students' speaking skill // OKARA: Jurnal Bahasa dan Sastra. – 2019. № 13 (2) – P. 153-164. DOI: 10.19105/ojbs.v13i2.2424
13. Rottier J., Ogan B.J. Cooperative learning in middle-level schools. Washington, DC: National Education Association. – 1991. – 112 p.
14. Slavin R. Cooperative Learning: Theory, Research and Practice. 2nd ed. New York: Prentice Hall. – 1995. – 194 p.
15. Socratous M. (2014). The effects of cooperative learning arrangements on the social skills of pupils identified as having severe learning difficulties, who attend special primary schools. PhD dissertation. University of Exeter. – 2014. – P. 55.
16. Wacker J.G. A Definition of Theory: Research Guidelines for Different Theory-Building Research Methods in Operations Management // Journal of Operations Management. – 1998. – № 16 – P. 361-385. [http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963\(98\)00019-9](http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963(98)00019-9)
17. Wiederhold C. The Question Matrix // San Juan Capistrano, Calif. – 1995. – 284 p
18. Wiederhold C. The Question Matrix // San Juan Capistrano, Calif. – 1995. – 284 p.
19. Yassin A.A., Razak N.A., Maasum N.R. Cooperative Learning: General and Theoretical Background // Advances in Social Sciences Research Journal. – 2018. – № 5(8) – P. 643.
20. Сорина Г.В. Принятие решений как интеллектуальная деятельность: Монография. – М.: Гардарики, 2005. – 253 с
21. Шукина Г.И. Исследование активизации учебно – познавательной деятельности. // Советская педагогика. – 1983. – № 3. – Б. 36-37.
22. <https://media.foxford.ru/articles/4-future-skills?ysclid=lrqtlr1gzv875220898> «4 навыка будущего | Сила Лиса (foxford.ru)»
23. <https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini 4K ko'nikmalaridan foydalangan holda o'qitish usullari va yondashuvlari muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются методы и подходы обучения школьников начальных классов Республики Каракалпакстан используя навыков 4К.

SUMMARY

This article discusses methods and approaches for teaching primary school students of the Republic of Karakalpakstan using 4Cs skills.